

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI
2025-YILDA AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Respublika oliy ta’lim muassasalarini birlashtirish orqali ularning faoliyatini kengaytirish.	1. Faoliyati kengaytiriladigan 5 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasalarini aniqlash. 2. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini kengaytirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish. 3. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Jumladan: <i>1-chorakda – 1 ta;</i> <i>2-chorakda – 1 ta;</i> <i>3-chorakda – 2 ta;</i> <i>4-chorakda – 1 ta.</i>	2025-yil fevral 2025-yil mart-avgust Yil davomida	Vazirning birinchi o‘rinbosari (<i>Sh.Daliyev</i>) Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamenti (<i>A.Xoliqov</i>)
2.	Nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga 1320 ta davlat buyurtmasi parametrlarini ajratish.	1. Nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarida davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarini belgilash. 2. Nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun davlat buyurtmasi qabul parametrlarini 10 foizga oshirish yuzasidan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasiga kiritish.	2025-yil may 2025-yil iyul	Vazirning birinchi o‘rinbosari (<i>Sh.Daliyev</i>) Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamenti (<i>A.Xoliqov</i>)

3.	Oliy ta'lim muassasalarida "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 12 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	1. Oliy ta'lim muassasalarida "Top-500"ga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturini tashkil etish yuzasidan kelishuvlarga erishish. 2. Qo'shma ta'lim dasturlarini ekspertizadan o'tkazish va qabul kvotalarini kelishish.	2025-yil II chorak 2025-yil III chorak	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A.Xoliqov)
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish markazini tashkil etish.	1. Respublika hududlarida yoshlar uchun xorijiy tillarni o'qitish markazlarini tashkil etishga mas'ul oliy ta'lim muassasalarini belgilash. 2. Tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan xorijiy tillarni o'qitish markazi uchun auditoriyalarni ajratish va jihozlash. 3. Tajribali, yuqori malakali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda xorijiy tillarni o'qitish markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025-yil I chorak 2025-yil II chorak Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A.Xoliqov)
5.	Oliy ta'lim tashkilotlarini xalqaro reyting tashkilotlari "TOP-1000" ro'yxatiga kiritish.	1. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiqligini tahlil qilish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlarini xalqaro reyting tashkilotlari "TOP-1000" ro'yxatiga kiritish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish. 3. 1 ta oliy ta'lim tashkilotini xalqaro reyting tashkilotlari "TOP-1000" ro'yxatiga kiritish.	2025-yil mart 2025-yil har chorakda 2025-yil dekabr	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi (B.Sobirov)
6.	Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.	1. 5 ta oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazish bo'yicha seminar-trening o'tkazish. 3. 5 ta oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish.	2025-yil I chorak 2025-yil II chorak 2025-yil IV chorak	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi (B.Sobirov)
7.	Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.	1. Davlat oliy ta'lim muassasalarining 38 000 nafar professor-o'qituvchilarining 15 foizini xorijiy davlatlarga malaka oshirish, stajirovka uchun yuborish rejasini tasdiqlash.	2025-yil I chorak	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev)

		2. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish, stajirovka uchun yuborishni ta'minlash. 3. 2025-yilda xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovka uchun yuborilgan professor-o'qituvchilar sonini jami 5 350 nafarga yetkazish. Jumladan: 1-chorakda – 1335 nafar; 2-chorakda – 1 555 nafar; 3-chorakda – 820 nafar; 4-chorakda – 1640 nafar.	Yil davomida	Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi (B.Sobirov)
8.	Respublika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga xorijiy professor-o'qituvchilar va tajribali soha mutaxassislari jalb qilish.	1. Davlat oliy ta'lim muassasalariga jalb qilinadigan xorijiy professor-o'qituvchilar ulushini OTMlarda faoliyat olib borayotgan 38 000 nafar professor-o'qituvchilarga nisbatan 8 foizga yetkazish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqish. 2. Reja-grafik asosida xorijdan jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar monitoringini olib borish. 3. 2025-yilda o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari sonini jami 3 040 nafarga yetkazish. Jumladan: 1-chorakda – 790 nafar; 2-chorakda – 870 nafar; 3-chorakda – 330 nafar; 4-chorakda – 1050 nafar.	2025-yil I chorak Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi (B.Sobirov)
9.	Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars berishga xorijda malaka oshirgan, stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilarni jalb qilish.	1. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars berishga jalb qilinadigan xorijda malaka oshirgan, stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar ro'yxatini va reja-jadvalini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan reja-jadval asosida xorijda malaka oshirgan, stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga jalb qilinishini tashkil etish. 3. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars beruvchi xorijda malaka oshirgan, stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar sonini jami 355 nafar (jami professor-o'qituvchilarga nisbatan 60 foiz) ga yetkazish.	2025-yil yanvar Yil davomida Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (U.Begimkulov)

10.	Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini jalb qilish.	1. Xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini kurslarda dars berishga jalb qilish bo'yicha dastlabki kelishuvlarni amalga oshirish. 2. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga jalb qilinadigan xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari ro'yxatini shakllantirish va reja-jadvalni ishlab chiqish. 3. Tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari sonini jami 230 nafarga yetkazish.	2025-yil I chorak 2025-yil fevral-mart Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (U.Begimkulov)
11.	Oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylarning rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qitish.	1. Oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari 2025-yil uchun tinglovchilar kontingenti va reja-jadvalini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan reja-jadvalga asosan oliy ta'lim muassasalarining 11000 nafar hamda akademik litseylarning 3000 nafar rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirish. 3. Oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonining doimiy elektron monitoringini tashkil etish.	2025-yil yanvar 2025-yil yanvar-dekabr Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (U.Begimkulov)
12.	Oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari fondidagi 731 ming nomdagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish.	1. Axborot-resurs markazlari fondidagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish reja-grafigini tasdiqlash. 2. 731 ming nomdagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish orqali ko'rsatkichni 70 foizga yetkazish.	2025-yil fevral 2025-yil dekabr	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M.Boltabayev)

13.	Kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimini tartibga solish.	1. Vazirlar Mahkamasining "Kasbiy ta'lim tizimi faoliyatini tartibga solishga oid nizomlarni tasdiqlash haqida" qarori loyihasini ishlab chiqish; 2. Qaror loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish; 3. Qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil fevral 2025-yil mart 2025-yil aprel	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)
14.	Mehnat qonunchiligiga dual ta'limni tashkil etishga doir o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.	1. Dual ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar ish vaqtining davomiyligi, ularga ish haqi to'lanishi va ushbu jarayonlarni "Yagona milliy mehnat tizimi" IDAKka integratsiya qilish kabi masalalardan kelib chiqib, mehnat qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash. 2. Tayyorlangan takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil fevral 2025-yil mart	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)
15.	Germaniya tajribasi asosida biznes asoslari fani o'qituvchilarini "Biznesni tashkil etish" "Mikro biznes" o'yini, "Biznesni rejalashtirish" modullari bo'yicha o'qitish va sertifikatlash.	1. Kasbiy ta'lim muassasalarining biznes asoslari fanidan dars beruvchi 750 nafar o'qituvchilarni tegishli modullar bo'yicha tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish. 2. Tegishli modullar o'qitish yakunlari bo'yicha ekspertlar ishtirokida biznes asoslari fani o'qituvchilarini baholashni tashkil qilish. 3. Baholash natijalari bo'yicha biznes asoslari fani o'qituvchilariga sertifikatlar berish.	2025-yil may 2025 yil iyun 2025-yil iyul	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)
16.	Kasbiy ta'lim muassasalarida dual ta'limda o'qitish bo'yicha har bir shahar va tuman kesimida texnikumlar direktori, ish beruvchilar va hokimlik vakillari uchun o'quv seminarlar tashkil etish.	1. Dual ta'lim bo'yicha alohida taqdimot materiallari va qo'llanmalar ishlab chiqish. 2. Hududlarda seminarlarni tashkil etish grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Har bir shahar va tumanlarda texnikum direktorlari, ish beruvchilar va hokimlik vakillari uchun o'quv seminarlar tashkil qilish.	2025-yil yanvar 2025-yil fevral 2025-yil mart	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)

17.	Korxona va tashkilotlar buyurtmalari asosida dual ta'lim shaklida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlaydigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ko'lamini kengaytirish.	1. Korxona va tashkilotlarning dual ta'lim shaklida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bo'yicha buyurtmalarini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan buyurtmalarni tahlil qilish va kasbiy ta'lim tashkilotlari bilan tegishli shartnomalarni rasmiylashtirishni tashkil qilish. 3. Dual ta'lim shaklida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlaydigan kasbiy ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarni qabul qilish.	2025-yil I chorak 2025-yil II chorak Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)
18.	Kasbiy ta'lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini oshirish.	1. Kasbiy ta'lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo'lmagan pedagog kadrlarni aniqlash. 2. Malaka toifasini oshiradigan pedagog kadrlar uchun seminar-treninglar tashkil qilish. 3. Kasbiy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarini malaka toifasini oshirish bo'yicha imtihonlarga jalb qilish.	2025-yil mart Yil davomida 2025-yil IV chorak	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)
19.	Kasbiy ta'lim tizimida milliy ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirish.	1. Xalqaro ta'lim dasturlaridan kelib chiqib, kasbiy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoriga tegishli o'zgartirish kiritish; 2. Xalqaro ta'lim dasturlari va adabiyotlarni xarid qilish hamda tarjima qilish ishlarini tashkil qilish. 3. Tarjima qilingan xalqaro ta'lim dasturlarini milliy o'quv dasturlari mazmuniga singdirgan holda yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.	2025-yil fevral 2025-yil aprel 2025-yil iyul	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktori (Z.Xudoyberdiyev)
20.	"Kasbiy ta'lim" platformasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.	1. "Kasbiy ta'lim" platformasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhini tasdiqlash. 2. "Kasbiy ta'lim" platformasining texnik talablarini ishlab chiqish va yaratish. 3. "Kasbiy ta'lim" platformasini "Elektron hukumat" tizimi bilan integratsiya qilish.	2025-yil fevral 2025-yil aprel 2025-yil noyabr	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X.Sultanov) Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti (U.Alijonov)

21.	Oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim, fan hamda innovatsiyalar sohasida yagona raqamli ekotizim yaratishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	1. Hujjat loyihasini ishlab chiqish bo'yicha Ishchi guruh shakllantirish. 2. Hujjat loyihasini ishlab chiqish, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil fevral 2025-yil iyun	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X.Sultanov)
22.	Fuqarolarga chet tili bo'yicha milliy sertifikat olish imkoniyatini kengaytirish.	1. Talabgorga qayta imtihon topshirishda qulaylik yaratish maqsadida imtihon kunini Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-sayti orqali mustaqil tanlash huquqini berish. 2. Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat imtihonida ishtirok etgan va natijasidan qoniqmagan talabgorlarga uch oy muddatda to'rtta ko'nikma (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish)dan istalgan biri bo'yicha qo'shimcha to'lov asosida bir marotaba qayta imtihon topshirish va sertifikat olish imkoniyatini yaratish.	2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov)
23.	Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri (sinovlarsiz) tan olish imkoniyatlarini kengaytirish.	1. Oliy ta'limning bilim sohalari bo'yicha xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Xorijiy davlatlarda ta'lim olgan va bilim sohalari bo'yicha xorijiy tillar va umumta'lim fanlaridan tegishli daraja ball)ga ega xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lgan shaxslarning ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini to'g'ridan-to'g'ri (sinovlarsiz) tan olishni yo'lga qo'yish.	2025-yil oktyabr 2025-yil dekabr	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov)
24.	O'zbekiston-Xitoy ta'lim forumini o'tkazish.	1. XXR mas'ullari bilan mazkur forumni yuksak darajada tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib borish. 2. O'zbekiston-Xitoy ta'lim forumi ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish. 3. O'zbekiston-Xitoy ta'lim forumini yuksak darajada o'tkazish.	2025-yil yanvar 2025-yil mart Kelishilgan muddatda	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi (G'.Yoziyev)

25.	O'zbekiston-Yaponiya ta'lim forumini o'tkazish.	1. Yaponiya mas'ullari bilan mazkur forumni yuksak darajada tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib borish. 2. O'zbekiston-Yaponiya ta'lim forumi ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish. 3. O'zbekiston-Yaponiya ta'lim forumini yuksak darajada o'tkazish.	2025-yil fevral 2025-yil mart Kelishilgan muddatda	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi (G'.Yoziyev)
26.	208 ta oliy ta'lim tashkiloti rasmiy veb-saytlari diversifikatsiyasi bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish.	1. Oliy ta'lim tashkilotlari rasmiy veb-saytlarini yuritish bo'yicha yagona tartib ishlab chiqish. 2. Oliy ta'lim tashkilotlari veb-saytlarining umumiy dizayni va vizual elementlarini zamonaviylashtirish; 3. Veb-saytlarni "Google", "Yandex" va boshqa qidiruv tizimlarida yuqori reytingga chiqarish uchun SEO optimizatsiyasini amalga oshirish.	2025-yil mart 2025-yil iyun 2025-yil iyul	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Axborot xizmatlari bo'limi (N.Abdugunduzova) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X.Sultanov)
27.	208 ta oliy ta'lim tashkilotlari veb-saytlarida "UI GreenMetric" platformasini joriy etish.	1. Oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarida "Yashil universitet" bo'limini yaratish. 2. Bo'limga matnli, vizual va interaktiv shaklda ma'lumotlarni joylashtirib borish (infografika, dinamik statistika). 3. Ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, bosma va elektron nashrlar)da ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, ekologik loyihalar va yutuqlarni doimiy yoritib borish.	2025-yil yanvar Yil davomida	Vazirning birinchi o'rinbosari (Sh.Daliyev) Axborot xizmatlari bo'limi (N.Abdugunduzova)
28.	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini teatr, muzey, tarixiy obidalar va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashriflarini tashkil etish, "Adiblar xiyoboni", "Ma'rifat ulashib" loyihalari doirasidagi tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish.	1. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini teatr, muzey, tarixiy obidalar va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashriflarini tashkil etish, "Adiblar xiyoboni", "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasidagi tadbirlarni o'tkazish reja grafisini tasdiqlash; 2. Reja-grafikka muvofiq, talabalarini teatr, muzey, tarixiy obidalar, "Adiblar xiyoboni" va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashriflarini tashkil etish;	2025-yil yanvar Yil davomida	Vazir o'rinbosari (S.Buzruksxonov) Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov)

		3. Hisobot yilida talabalarining tashriflar sonini 280 ming nafarga (38 foiz) yetkazish; Jumladan: 1-chorakda – 73 914 ta (10 foiz); 2-chorakda – 110 000 ta (15 foiz); 3-chorakda – 29 565 ta (4 foiz); 4-chorakda – 66 522 ta (9 foiz). 4.O‘tkazilayotgan tadbirlarni OAVda keng yoritish.		
29.	Oliy ta’lim muassasalarida talabalarining bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida muhim sanalarga bag‘ishlangan bayram tadbirlari, “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, sohaga oid tanlovlar hamda talaba-o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Universiada”, “Talaba-yugur” va “Barkamol avlod” kabi sport musobaqalarini yuqori saviyada o‘tkazish.	1. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘z ichiga olgan talaba va yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo’yicha chora-tadbir rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash va ijrosini ta’minlash; 2. Muhim sanalarga bag‘ishlangan bayram tadbirlari, “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, sohaga oid tanlovlarda 620 ming nafar 63 foiz talaba-o‘quvchilarni qamrab olish; <i>Jumladan:</i> 1-chorak – 180 ming (19 foiz) 2-chorak – 210 ming (22 foiz) 3-chorak – 90 ming (9 foiz) 4-chorak – 140 ming (13 foiz) 3. “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Universiada”, “Talaba-yugur” va “Barkamol avlod” sport musobaqalarida 540 ming nafar (55 foiz) talaba-o‘quvchilarni qamrab olish; <i>Jumladan:</i> 1-chorak – 150 ming (15 foiz) 2-chorak – 180 ming (18 foiz) 3-chorak – 70 ming (7 foiz) 4-chorak – 130 ming (14 foiz)	2025-yil yanvar Yil davomida	Vazir o‘rinbosari (S.Buzrukhonov) Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov)
30.	Innovatsion faoliyatda tashabbuskor bo‘lgan 1000 nafar iqtidorli yoshlarni Yoshlar akademiyasi a’zoligiga qabul qilish.	1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridagi oliy ta’lim tashkilotlarida Yoshlar akademiyasi targ‘ibotini olib borish; 2. Yoshlar akademiyasi a’zoligi uchun kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiqish hamda 1000 nafar iqtidorli yoshlarni Yoshlar akademiyasi a’zoligiga qabul qilish. <i>Jumladan:</i> 1-chorakda – 200 nafar; 2-chorakda – 300 nafar ; 3-chorakda – 100 nafar ; 4-chorakda – 400 nafar .	2025-yil yanvar-dekabr 2025-yil yanvar-dekabr	Vazir o‘rinbosari (S.Buzrukhonov) Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiglashtirish bo‘limi boshlig‘i (A.Sobirxonov)

31.	Oliy ta'lim tashkilotlaridagi iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan innovatsion loyihalar sonini tanlovlar va tadbirlar orqali 1500 taga yetkazish.	1. Yoshlar akademiyasi tomonidan o'tkaziladigan tanlovlar va tadbirlar targ'ibotini olib borish; 2. Oliy ta'lim tashkilotlaridagi iqtidorli yoshlarni jalb qilgan holda seminar-treninglar o'tkazish. 3. Oliy ta'lim tashkilotlaridagi iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan 1500 ta innovatsion loyihalarni tanlovlar va tadbirlarga jalb etish. Jumladan: <i>1-chorakda – 200 ta;</i> <i>2-chorakda – 800 ta;</i> <i>3-chorakda – 200 ta;</i> <i>4-chorakda – 300 ta.</i>	2025-yil yanvar-dekabr 2025-yil fevral-oktyabr Har chorakda	Vazir o'rinbosari (S.Buzrukhonov) Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (A.Sobirxonov)
32.	Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliygoh va byudjet mablag'lari hamda investitsiya dasturi doirasida quriladigan yotoq o'rinlari sonini oshirish.	1. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida talabalar turar joylarini barpo etish bo'yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish. 2. 2025-yil yakuniga qadar respublika oliy ta'lim muassasalarida 8 000 o'rinli talabalar turar joylarini yaratish.	2025-yil yanvar-dekabr 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (S.Buzrukhonov) Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J.Xalilov)
33.	Oliy ta'lim muassasalarida yangi o'quv binolarini qurish hisobiga qo'shimcha o'rinlar yaratish.	1. O'quv binolarini qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish. 2. Qurilish-ta'mirlash ishlarini yakunlash hisobiga 9 500 o'rinli yangi o'quv o'rinlarini foydalanishga topshirish. Jumladan: <i>3-chorakda – 3 000 o'quv o'rni;</i> <i>4-chorakda – 6 500 o'quv o'rni.</i>	2025-yil yanvar-dekabr 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (S.Buzrukhonov) Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J.Xalilov)
34.	Hududlardagi 112 ta oliy va 600 ta kasbiy ta'lim muassasalarining bino va inshootlarini Pasportbino.uz platformasiga kiritib, elektron texnik pasportlarini 100 foizga yetkazish.	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bino va inshootlarining seysmik mustahkamligini qayta ko'rib chiqib xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijalariga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib, Pasportbino.uz platformasiga tegishli 4686 ta bino va inshootlarning elektron texnik pasportlarini kiritilishini 100 foizga yetkazish. Jumladan: <i>1-chorakda – 1 000 ta (21,3 foiz);</i> <i>2-chorakda – 1 100 ta (23,4 foiz);</i>	2025-yil noyabr	Vazir o'rinbosari (S.Buzrukhonov) Hududiy bo'linmalar bilan ishlash boshqarmasi boshqarmasi (F.Mo'minov)

		3-chorakda – 1 200 ta (25,6 foiz); 4-chorakda – 1 386 ta (29,5 foiz).		
35.	Tajribali mutaxassislarni jalb qilgan holda turizm sohasi mutaxassislari uchun sifatli xizmat ko'rsatishning ilg'or usullari to'g'risida seminar-treninglar tashkil qilish.	1. Oliy ta'lim muassasalariga biriktirilgan 13 ta hududlarning 30 ta tumanlarida turistik salohiyatini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish. 2. Hududlardagi aholi tomonidan turizm xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda kadrlarning malakasini oshirishda ko'maklashish. 1-chorakda – 30 ta (25 foiz); 2-chorakda – 30 ta (25 foiz); 3-chorakda – 30 ta (25 foiz); 4-chorakda – 30 ta (25 foiz).	2025-yil fevral Yil davomida	Vazir o'rinbosari (S.Buzruksxonov) Hududiy bo'linmalar bilan ishlash boshqarmasi boshqarmasi (F.Mo'minov)
36.	Professor-o'qituvchilar tomonidan Scopus/Web of Science bazalarida indekslanuvchi jurnallarda nashr etilgan maqolalar soni 4000 taga yetkazish.	1. Oliy ta'lim, ilmiy tashkilotlar professor-o'qituvchilari, xodimlari uchun "Scopus", "Web of Science", "Science Direct" va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalari jurnallarida maqola nashr etish malaka va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan xorijiy ekspertlar ishtirokida seminar-trening tashkil etish. 2. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tashkilotlar xodimlarining "Scopus", "Web of Science", "Science Direct" va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalari jurnallarida maqola nashr etish faoliyatini tashkilot yoki muassasaning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirishni ta'minlash. 3. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tashkilotlar xodimlarining "Scopus", "Web of Science", "Science Direct" va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalari jurnallarida 4 000 ta maqola nashr etish (2024 yilda 3800 dan ortiq maqola nashr etilgan).	2025-yil I chorak 2025-yil davomida 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (O.Bazarov)
37.	Tadqiqotchilarni ilmiy darajalar olish samaradorligini oshirish choralari ko'rish.	1. Ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar bilan ochiq muloqotlar tashkil etish va dissertatsiya himoyasiga to'sqinlik qilayotgan muammolarini o'rganish. 2. Dissertatsiya himoyasida muammoga duch kelayotgan tadqiqotchilar uchun tadqiqot natijalari muhokamasiga qaratilgan 8 ta seminar tashkil etish. 3. Ilmiy tadqiqotchilardan 4 150 nafarini ilmiy daraja olishiga erishish (2024 yilda 3900 nafar tadqiqotchiga ilmiy darajalar berilgan).	2025-yil fevral Reja grafik asosida 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (O.Bazarov)

38.	Oliy ta'lim tashkilotlarida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushini ko'paytirish orqali ilmiy salohiyatni oshirish.	1. Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi kam bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarida bu boradagi muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va tahlil qilish. 2. Tahlil natijalari asosida oliy ta'lim tashkilotlarida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushini ko'paytirishga qaratilgan "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash. 3. "Yo'l xaritasi" ijrosini nazoratga olish va oliy ta'lim tashkilotlari ilmiy salohiyatini 55 foizga yetkazish (2024 yil 27 dekabr holatiga 45 foiz).	2025-yil fevral 2025-yil mart 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (O.Bazarov)
39.	Ilmiy-innovatsion ishlanmalar bo'yicha xo'jalik shartnomalar salmog'ini kengaytirish.	1. Ilmiy-innovatsion ishlanmalar bo'yicha xo'jalik shartnomalari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish, bu boradagi mavjud holatni tahlil qilish. 2. Ilmiy-innovatsion ishlanmalar bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish yuzasidan aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kelgusida bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan metodik qo'llanma (yo'riqnoma) tayyorlash. 3. Tizimda ilmiy-innovatsion ishlanmalar bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish jarayonlarini monitoring qilib borish. 4. Monitoring natijalari asosida tanqidiy-tahliliy muhokamalar tashkil etish va xo'jalik shartnomalari soni va samaradorligini oshirish choralari ko'rish.	2025-yil mart 2025-yil aprel 2025-yil har chorak Yil davomida	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (O.Bazarov)
40.	Matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik, muhandislik kabi yo'nalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish.	1. Matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik, muhandislik kabi yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilinadigan tanlov mavzularini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tanlov mavzularini ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e'lon qilish. 3. E'longa kelib tushgan loyiha talabnomalarini ekspertiza natijalariga ko'ra saralab olish va ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga kiritish.	2025-yil avgust 2025-yil sentyabr 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev) Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (O.Bazarov)
41.	Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma'naviyat, madaniyat va san'at kabi ijtimoiy-gumanitar fan yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish.	1. Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma'naviyat, madaniyat va san'at kabi ijtimoiy-gumanitar fan yo'nalishlari bo'yicha e'lon qilinadigan tanlov mavzularini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tanlov mavzularini ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e'lon qilish.	2025-yil avgust 2025-yil sentyabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)

		3. E'longa kelib tushgan loyiha talabnomalarini ekspertiza natijalariga ko'ra saralab olish va ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga kiritish.	2025-yil dekabr	
42.	Ilmiy laboratoriyalarni asbob-uskunalar bilan jihozlash tartibini takomillashtirish.	1. Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun zarur laboratoriya uskunalarini aniqlash. 2. Ilmiy laboratoriyalar asbob-uskunalarini aniq ilmiy tadqiqotga bog'langan holda xaridini tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. 3. Ilmiy laboratoriyalar asbob-uskunalarini xarid qilinadigan oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar ro'yxatini shakllantirish. 4. Ilmiy laboratoriyalarni asbob-uskunalar bilan jihozlash tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil fevral 2025-yil may 2025-yil may 2025-yil noyabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)
43.	Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalarini oshirish.	1. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar ehtiyojlari asosida davlat byudjeti hisobidan stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura uchun qabul kvotalariga talabnomalarni qabul qilish. 2. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlaridan kelib tushgan talabnomalarni umumlashtirib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish. 3. Davlat byudjeti hisobidan doktorantura uchun qabul kvotalarini ilmiy va ta'lim tashkilotlari kesimida tasdiqlash.	2025-yil may-iyun, 2025-yil iyul, 2025-yil sentyabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)
44.	Respublika hududlarida akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkil etish.	1. Respublika hududlarida tashkil etilgan Yoshlar texnoparklarida akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkil etish. 2. Tashkil etilgan akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga 120 ta startap loyihalarni jalb etish va o'qitish. 3. Dasturlarni muvaffaqiyatli yakunlagan startap loyihalarni Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etiladigan startap loyihalar tanlovlariga yo'naltirish.	2025 yil I chorak 2025-yil II chorak Dastur yakunlari bo'yicha	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)

45.	Respublika va xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadbir va anjumanlar tashkil qilish choralari ko'rish.	1. Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlardan atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga oid ilmiy anjumanlar o'tkazish bo'yicha takliflarni qabul qilish. 2. 2025-yilda respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazish reja-grafigini tasdiqlash. 3. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar o'tkazilishini tashkil qilish.	2025-yil fevral 2025-yil mart Yil davomida	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)
46.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar yosh olimlarini ilmiy stajirovkalarga yuborish uchun maqsadli tanlovlarni tashkil etish choralari ko'rish.	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar yosh olimlarini ilmiy stajirovkalarga yuborish uchun maqsadli tanlov e'loniga tegishli hujjatlarni tayyorlash. 2. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar yosh olimlarini ilmiy stajirovkalarga yuborish uchun maqsadli tanlov e'lon qilish.	2025-yil aprel 2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)
47.	Ko'rgazmalarda "yashil" iqtisodiyot hamda "yashil" o'sishni ta'minlashga qaratilgan yangi ishlanma hamda mahsulotlar ishtirokini ta'minlash.	1. Tashkil etiladigan sanoat yarmarkalari va innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar ko'rgazmalariga "yashil" iqtisodiyot, "yashil" energiya bo'yicha tadqiqot olib boruvchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari ishlanmalari ro'yxatini shakllantirish. 2. Sanoat yarmarkalari va innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar ko'rgazmalariga "yashil" iqtisodiyot, "yashil" energiya bo'yicha ishlanma hamda texnologiyalar ishtirokini ta'minlash.	2025-yil avgust 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)
48.	"Yashil" iqtisodiyot hamda "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ishlanmalarni tijoratlashtirishga tayyorlash choralari ko'rish.	1. "Yashil" iqtisodiyot hamda "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ishlanmalarni tijoratlashtirishga tayyorlash loyihalari uchun tanlov e'lon qilish. 2. Tanlovga topshirilgan loyihalar arizalarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish. 3. "Yashil" iqtisodiyot hamda "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ishlanmalarni tijoratlashtirishga tayyorlash loyihalari moliyalashtirish choralari ko'rish.	2025-yil may 2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	Vazir o'rinbosari (O.Maxkamov) Innovatsion rivojlanish agentligi (Sh.Rajabbayev)